

### UMUMIY ORTA TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI NAZARIY VA AMALIY O'RGANISH

**Abdug'aniyeva Shaxzoda Shuxrat qizi**  
*A.Qodiriy nomidagi JDPU 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada umumiy o'rta ta'limga o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari tushunchasi, uning shakllanishi va rivojlanish yo'naliishlari tahlil qilinadi. Kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari, ularni aniqlash va baholash mezonlari, shuningdek, ta'limga sifatiga ta'siri nazariy va amaliy asoslarda ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar, metodlar va texnologiyalar yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *kasbiy kompetensiya, o'qituvchi, pedagogik faoliyat, kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy ta'limga, metodika, refleksiya, innovatsion texnologiyalar.*

Dolzarbliji: 2023-yil 31-martdagi PQ-116-sonli qarorda umumiy o'rta ta'limga sifatni oshirish, pedagoglarni tayyorlash va ular uchun malaka oshirishning yangi shakllarini joriy etishga qaratilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda o'qituvchilar uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" haqida qaror 2024-yil 21-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-231-sonli qarori bilan qabul qilingan. Bu qaror "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish" bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni ko'zda tutadi. Qarorga muvofiq Har haftada "Kasbiy rivojlanish kuni" deb ataluvchi maxsus metodik mashg'ulotlar o'tkaziladi. Fan yo'naliishlariga qarab kunlar taqsimlanadi, masalan, dushanba – aniq fanlar, seshanba – filologiya fanlari, payshanba – ijtimoiy fanlar kabitdir.

XXI asrda o'qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, balki o'quvchining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan murabbiyga aylanmoqda. Shu boisdan, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini aniqlash va takomillashtirish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'limga tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy ko'nikmalar, shaxsiy yondashuv va innovatsion fikrlash bilan uyg'unlashgan holda baholanmoqda.

Kasbiy kompetensiya – bu o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini yuqori samaradorlik bilan amalga oshirishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning majmuasidir. Kompetensiyaviy yondashuv bugungi ta'limga jarayonining asosiy poydevorlaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy kompetensiyaning asosiy turlari:

Predmet kompetensiyasi – o'z fanini chiqur bilishi va o'rgata olishi.

Pedagogik-psixologik kompetensiya – o'quvchilar psixologiyasi, yosh xususiyatlari, individual ehtiyojlarini hisobga olib ta'limga berish.

Didaktik-metodik kompetensiya – ta'limga metodlari, texnologiyalarini bilish va samarali qo'llay olish.

Axborot-kommunikatsion kompetensiya – AKT vositalaridan samarali foydalanish.

Refleksiv kompetensiya – o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolar ustida ishlash.

Mahoratli pedagoglar mana shu kompetensiyalarining har biriga ega bo'lishi kerak. Chunki kompetensiyalar orqali har bir yo'naliish bo'yicha o'qituvchining rivojlanish

darajasini aniqlash mumkin bo'ladi. Masalan, bir o'qituvchi metodik jihatdan kuchli bo'lishi mumkin, lekin AKT bo'yicha qo'shimcha tayyorgarlikni talab qilishi mumkin. O'qituvchining qaysi kompetensiyasi kuchli, qaysi biri rivojlanishga muhtoj ekani aniqlansa, unga mos ravishda malaka oshirish, treninglar va seminarlar tashkil etish osonlashadi.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi ta'lim psixologiyasi va pedagogika fanida ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan:

L.S. Vygotskiy o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar asosida rivojlanishni nazarda tutgan.

J. Piaget shaxsiy tajriba asosida bilimlarni egallashni asosiy omil deb bilgan.

B.F. Skinner esa rag'batlantirish va jazolash orqali xulq-atvorni boshqarish g'oyasini ilgari surgan.

Mazkur yondashuvlarning barchasi o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ravishda ishlashida ham kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishi mumkin.

Amaliyotda o'qituvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi usullar va vositalardan foydalilanadi:

- Malaka oshirish kurslari (onlayn va oflayn)
- Trening va seminarlar – interaktiv metodik mashg'ulotlar
- Mentorlik tizimi – tajribali o'qituvchilarining yangi kadrlarga ko'maklashishi
- Ichki va tashqi attestatsiyalar
- Portfolio yuritish – o'z ish faoliyati natijalarini muntazam qayd etish

Zamonaviy texnologiyalar, xususan masofaviy ta'lim platformalari, elektron darsliklar, ta'limiy ilovalar o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini baholashda o'quvchilarining bilim natijalari va yutuqlari, ta'lim jarayoniga innovatsiyalarini joriy etish darajasi, darsning metodik jihatdan tashkil etilishi, o'qituvchining kommunikativ, tashkiliy va liderlik qobiliyatları va 360 darajali baholash, muallim portfoliosi, sinfdan tashqari faoliyatlar ham inobatga olinadi. O'qituvchi kompetensiyasining yuqori bo'lishi bevosita o'quvchilarining bilim darajasiga, ularning mustaqil fikrashi, ijodkorligi va muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy ta'limda o'qituvchi – bu yo'lboshchi, motivator va yordamchi rolini bajaradi. Shu sababli, har bir o'qituvchi o'z kompetensiyalarini doimiy rivojlantirib borishi lozim.

Shunday ekan, bugungi zamon talablari asosida:

- o'qituvchining har tomonlama kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
- har bir kompetensiya turini rivojlantirishga qaratilgan individual rivojlanish yo'llarini ishlab chiqish;
- kompetensiyalarni baholashning ochiq va shaffof tizimini joriy etish;
- o'qituvchilik kasbining ijtimoiy maqomini oshirish – ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

Kasbiy kompetensiyalarga boy bo'lgan o'qituvchi – bu innovatsion fikrlovchi, pedagogik jarayonni boshqaruvchi, o'quvchini mustaqil fikrashga undovchi yetuk shaxsdir. Shunday o'qituvchilar orqali mamlakat ta'lim tizimi global miqyosda raqobatbardosh bo'lishi mumkin.

### XULOSA

Umumiy o'rta ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari bugungi ta'lim tizimi taraqqiyotining asosi bo'lib, uning yuksak sifati va samaradorligini ta'minlaydigan muhim omildir.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish o'qituvchining faqatgina bilim yetkazuvchi emas, balki o'quvchi shaxsini shakllantiruvchi, unga yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi murabbiy sifatidagi rolini mustahkamlaydi. Kasbiy kompetensiyalarini turlarga ajratish - ularni tizimli rivojlantirish, baholash va monitoring qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy-uslubiy asosni yaratadi.

Ayniqsa, pedagogik, psixologik, metodik, axborot-kommunikatsion, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarini aniqlash va ularga qarab o'qituvchilarini malakali tayyorlash - ta'lim sifatini oshirishning poydevoridir. O'qituvchi kasbiy kompetensiyalarining rivoji o'z-o'zini anglash, o'z ustida ishslash madaniyatini shakllantiradi.

Shuningdek, har bir pedagogning o'ziga xos didaktik yondashuvlarini topishga, yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy etishga imkon beradi.

Shu bilan birga, kasbiy kompetensiyalarining shakllanishi va rivojlanishi uzlusiz ta'lim tizimi, zamонавиу texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilgan malaka oshirish kurslari, ilmiy-uslubiy markazlarning faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-231-sonli qarori (2024-yil, 21-iyun).
2. Vygotskiy L.S. "Pedagogik psixologiya", Moskva, 2001.
3. Shodmonov Yo.G. "Pedagogik kompetensiya va innovatsiyalar", Toshkent, 2019.
4. Abdurahmonova F. "Kasbiy kompetensiyalarini baholash metodikasi", Toshkent, 2022.
5. Xoshimov S., Asqarova M. "Pedagogik kompetentlik asoslari". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2022.

### ELEKTRON ADABIYOTLAR

1. Lex.uz - O'zbekiston qonunchiligi milliy bazasi.
2. Edu.uz - O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi rasmiy sayti.
3. Uza.uz - Milliy axborot agentligi sayti.